



**AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING IJTIMOYIY HAYOTNI
MODERNIZATSIYALASHI VA UNDA INSON RESURSLARINING O`RNI**

ERGASHEV TOLIBJON ESHQOBILOVICH

– f.f.b.f.d., (PhD), dotsent,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Boshqaruv samaradorligi agentligi

Jizzax viloyati filiali bosh inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatni shakllantirish va uning barqaror ravishda rivojlanishi – bugungi davr talablaridan biri hisoblanishi, bu jarayonda inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, inson resurslarini samarali boshqarish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda raqamli islohotlarni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb qilishi, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, inson resurslarini boshqarish axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlar ekanligi, jamiyatni modernizatsiya qilishda asosiy ustuvorlikka ega bo‘l ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axborotlashgan jamiyat, inson resurslari, inson salohiyati, inson kapitali, jamiyatni modernizatsiyalash, raqamli islohot, ijtimoiy hayot, innovatsiya, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В данной статье научно проанализирован тот факт, что формирование информационного общества и его устойчивое развитие являются одним из требований современности, в этом процессе первостепенное значение имеют полная реализация человеческого потенциала, повсеместное внедрение информационных технологий, проведение цифровых реформ в социально-экономических отраслях путем эффективного управления человеческими ресурсами, а также что инновации, цифровые технологии, человеческий капитал и управление человеческими



ресурсами являются основными направлениями развития информационного общества и имеют главный приоритет в модернизации общества.

Ключевые слова: информационное общество, человеческие ресурсы, человеческий потенциал, человеческий капитал, модернизация общества, цифровая реформа, общественная жизнь, инновации, цифровая трансформация.

Abstract: This article scientifically analyzes the fact that the formation of an information society and its sustainable development are one of the requirements of today, in this process, the full realization of human potential, the widespread introduction of information technologies, and the implementation of digital reforms in socio-economic sectors through effective management of human resources are of paramount importance, and that innovation, digital technologies, human capital, and human resource management are the main directions in the development of an information society, and have the main priority in the modernization of society.

Key words: information society, human resources, human potential, human capital, modernization of society, digital reform, social life, innovation, digital transformation.

Kirish

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar qatorida fan va ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu sohalarni uzviy bog‘liq holda rivojlantirish O‘zbekiston ilm-fanini jahon standartlari darajasiga olib chiqishi, inson resurslari va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, fan sohasi va ta’lim tizimini alohida dasturlar, strategiyalar va konsepsiyalar asosida rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarini isloh qilish, ilmiy-ta’lim muassasalarini innovatsion faoliyatga jalb etish, zamonaviy laboratoriyalar, IT Park va IT markazlarni tashkil qilish kabi chora-tadbirlar bu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar samardorligini oshirmoqda. Bunday islohotlar bu ikki sohaning uzviyligini ta’minlash, ilm-fan sohasini jahon standartlari



darajasiga chiqarish, kadrlar tayyorlash, inson resurslarini rivojlantirish va ilm-fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, raqobatbardosh mutaxassislash tayyorlash va yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

Jamiyatni modernizatsiya qilishda, islohotlarni jadallashtirishda raqamli iqtisodiyot istiqbolli ahamiyatga ega. Axborotlashgan jamiyatga o'tish davrida O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, u uchun shart-sharoitlar yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bu ishlarga yurtimizdagi va xorijdagi mutaxassislarni, ayniqsa yoshlar va oliy ta'lim muassasalari talabalarini jalb qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda va qonunchilik bilan mustahkamlanmoqda. O'tgan yillarda amalga oshirilgan islohotlar, olimlar va ziyolilarga e'tibor, jamiyat ravnaqida davlat xizmatchilari, nodavlat sektor xodimlari, talabalar va yoshlar kuchi hamda ilmidan foydalanish natijasida davlatimiz dunyo mamlakatlari rivojlanishi yo'lidan ketdi va axborotlashgan jamiyatning hozirgacha ma'lum qonun qoidalariga ko'ra bir bo'lagi hisoblanadigan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Qonunchilik

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab keng miqyosida ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yangi laboratoriyalar va ilmiy muassasalarni qayta tashkil etish, ilg'or xorijiy davlatlardagi universitet va institutlarni filiallarini ochish, ilmiy-infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yilning 28-may kuni ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi¹. Unda davlatimiz rahbari ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga doir takliflarni muhokama qilish uchun maxsus maydon yaratish va bu maydon yurtimizda ilm-fanni rivojlantirishga asosiy turtki bo'lishi, sohaga doir davlat dasturlarini shakllantirishi, yuksak natijalarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/uz/lists/view/2604>



yo'naltirilgan ixtisosliklar bo'yicha milliy laboratoriyalar tizimini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xalqaro reytinglarda mamlakat nufuzini ko'tarish kabi vazifalar berildi.

-Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. Xomashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Qolaversa ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi, - dedi Sh.Mirziyoev².

O'rganishlar va tadqiqotlar

XXI asrda insoniyat jiddiy global o'zgarishlar to'lqiniga duch keldi. Shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, sun'iy intellektning kun sayin rivojlanib borishi, sun'iy yo'ldoshlar orqali bog'lanadigan uyali aloqa tizimlari, internetning chegara bilmasligi, qo'l telefonlari va boshqa gadjetlarning kompyuterlar o'rnini bosishi, katta quvvatga ega serverlarning ishga tushishi natijasida axborot makonida inqilob vujudga keldi va u iqtisodiyotning globallashuvi bilan xarakterlanadi. Axborotlar jamiyat va davlatlarning biznes jarayonlarida asosiy manbaga aylandi. Raqamli texnologiyalarning hayotga kirib kelishi kelajak dunyoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, u dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini tezlikda o'zgartirishi, qashshoq mamlakatlarni rivojlantirishi, ishsizlarni ish bilan ta'minlashi, yer yuzining hohlagan joyida ishlash, uydan chiqmay biznes qilish, pul topish, xarid qilish, katta ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish xususiyatlariga ega bo'ldi.

Axborotlashgan jamiyatda modernizatsiya jamiyatning barcha sohalariga kirib borib, o'ziga xos taraqqiyot tamoyilini hosil qiladi, chunki, bu jamiyat texnik va texnologik rivojlanish va jadal yangilanishlarga asoslangan ijtimoiy makondir. Jamiyat sohalarini modernizatsiyalash, innovatsionlashtirish, inson resurslari va

²Kun.uz internet axborot nashri https://kun.uz/kr/news/2019/05/28/xomashyo-va-uni-qayta-ishlash-bilan-uzoqqa-borib-bolmaydi-shavkat-mirziyoyev-ilm-fan-va-oliy-talim-sohasini-rivojlantirish-boyicha-yigilish-otkazdi?utm_source=chatgpt.com



inson kapitalidan unumli foydalanish shunday jarayonki, unda insonning an'anaviy turmush tarzi zamonaviy ko'lamdagi yangi bosqichga o'tadi va uning zamirida ijtimoiy hayotning barcha tizimlarida tub o'zgarishlarga erishiladi. Demak, modernizatsiya jarayonlari axborotlashgan jamiyatning barqaror mavjud bo'lishida o'ziga xos harakatlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. N.Smelzerning fikricha, "modernizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladigan murakkab holat bo'lib, jamiyatdagi sanoatlashtirish jarayonlari hamda fan-texnika yutuqlarining samarali o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'ladi"³.

Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni har tomonlama yangilash va modernizatsiya qilish jarayonini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishda insonning yangiliklar yaratishi va innovatsion faoliyatni tashkil etishi, o'zgarishlar amaliyotini qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq zamonaviy chora-tadbirlar mazmuniga ham e'tibor qaratish lozimdir. N.Шыokinning fikricha, "Novatsiya va innovatsiya falsafiy-metodologik tushuncha sifatida rivojlanish jarayonining uzluksiz xususiyatlarini aniqlab beradi. U doimiy ravishda alohida o'ziga xos bo'lgan tarixiy-madaniy an'analarni jonlantirib turadi. Shuning uchun novatsiya va innovatsiyalar amaliy jihatdan yangiliklarni hayotga joriy etish va ijtimoiy taraqqiyotni modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi"⁴.

Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy hayot tizimlarini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni qo'llash, inson resurslarini va inson kapitalidan samarali foydalanish tabiiy va mantiqiy jarayon hisoblandi. Chunki axborotlashgan jamiyat – bu texnik va texnologik jarayonlar inqilobi bo'lib, texnokratik madaniyat ustivorligi sodir bo'ladi. Bunday sharoitda axborot jamiyat va inson hayoti uchun hayot-mamot xususiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy turmushning eng kichik sohalarigacha chuqur kirib boradi. Shuningdek, inson ehtiyojlari, manfaatlari va huquqlarining ta'minlanishi

³ Smelser N.. Sociology. New-Jersey. Prentice Hall. 1988.

⁴ Щёкин Н. Понятия «новация» и «инновация»: социально-философский анализ.//Беларуская думка, №5, 2017. –С. 91.



ham axborot omili bilan bog'liq bo'ladi, bu jarayon oldingi jamiyatlarga qaraganda birmuncha oson va demokratik tamoyillarga muvofiq amalga oshadi.

Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, axborotlashgan borliqda inson resurslarini rivojlantirishning ham ahamiyati yuqori bo'lib, bu jarayon insonning intellektual salohiyati darajasi, inson bilimidan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik bilimlari ko'lami, yangiliklar yaratish qobiliyatini yuksalishi, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Demak, axborotlashgan ajamiyat inson taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, u individning har tomonlama mukammal, o'zining va jamiyat hayotini rivojlantirishga bo'lgan innovatsion va inson resurslarini shakllantirish qadriyatlarini hosil qiladi. Bu jarayonda jamiyatning asosiy qatlami bo'lgan yoshlar, talabalar, davlat xizmatchilari, xususiy sektorda faoliyat ko'rsatuvchi shaxslarning ilmiy va texnologik sohadagi salohiyati yuqoriligi muhim o'rin tutadi. Ular kelajak istiqbol egalari sifatida inson resurslarining qiymatini belgilab beradi va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etadi.

R.Muxaevning ta'kidlashicha, "Modernizatsiyada jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti quyidagi o'zgarishlarni o'z boshidan kechiradi:

- oddiy sotsial strukturadan murakkab tizimga o'tiladi;
- ijtimoiy integratsiyalashuv iqtisodiy mohiyat kasb etadi;
- etatizmdan bozor munosabatlariga o'tish ro'y beradi;
- inson tabiatning bir bo'lagi ekanligi holatidan ijodkor - kashfiyotchi holatiga o'tadi;
- odamlar ongida plyuralistik qarashlar ro'y beradi;
- totalitarizm va avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish ro'y beradi"⁵.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni modernizatsiya qilish ishlari muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy soha va iqtisodiyot

⁵ Мухаев Р. *Политология*. –Москва: Проспект, 2011, -С. 492.



tarmoqlarini modernizatsiya qilish o‘z navbatida jamiyatda innovatsion faoliyatning jadallashuviga turtki berib, inson farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. A.Auzan, K.Kelimbetovlar “Globalizatsiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun modernizatsiya ishlarini amalga oshirish nafaqat muhim balki, rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanadi”⁶, -deb ta’kidlagan.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyatda olib boriladigan modernizatsiya va islohotlar falsafasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalaridagi jadal asosdagi tubdan o‘zgarishlar, maqsad va vazifalarning umumiy, dinamik ko‘rinishda aks etishidir. Jamiyatda modernizatsiya jarayonini amalga oshirish uchun shunga mos va muvofiq keladigan tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lmog‘i zarur. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, chuqur iqtisodiy yuksalish, mamlakatda yashovchi fuqarolarning hokimiyatga va rahbarlarga ishonchi, ularning ijtimoiy ahvolini kundan kunga yaxshilanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Takliflar

Axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy hayotni modernizatsiyalash, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, axborot texnologiyalarini samarali joriy yetish, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish, unda inson resurslarining o‘rni bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish:

-maktabgacha va maktab, professional va oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish va hayot davomida o‘qish (lifelong learning) tizimini yo‘lga qo‘yish;

-yoshlar, davlat va xususiy sektorda faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislar uchun innovatsion markazlar, startaplar va ta’lim kovorking hududlarini tashkil etish;

⁶ Аузан А., Келимбетов К. Социокультурная формула экономической модернизации. //Вопросы экономики, 2012 г. № 5. –С. 38.



2. Davlat boshqaruvi va jamiyatning boshqa sohalarini raqamlashtirish:

- “Ochiq hukumat (Open Government) tamoyillarini chuqurlashtirib, rivojlantirish, ya’ni budjet, qonun loyihalari, davlat xaridlari bo’yicha ochiq ma’lumotlar bazalarini kengaytirish;

-fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish uchun raqamli yangi platformalar yaratish (onlayn ovoz berish), mavjudlarini rivojlantirish (jamoaviy fikr bildirish);

-tuman, viloyat darajasidagi muammolarni hal qilish uchun “raqamli jamoatchilik” kabi dasturlarni ishlab chiqish, bunda mobil ilovalarni yaratish va ulardan keng foydalanish.

3.Inson resurslarini samarali boshqarish, inson kapitali va IT sohasidagi ko’nikmalarni rivojlantirish sohasida:

-davlat va xususiy sektorda HR (Human Resources) standartlarini joriy qilish, kadrlar tanlovini hozirgidanda ochiq va shaffof o’tkazish;

-inson resurslari salohiyatini baholash va rivojlantirish bo’yicha milliy dasturlar ishlab chiqish;

-yoshlar, ish bilan band bo’lmagan xotin-qizlar, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun raqamli ko’nikmalar va IT savodxonlikni rivojlantirish bo’yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish;

-xalqaro tajribalarda o’zini oqlagan umrbod o’qish tamoyiliga asoslangan mamlakatimizga mos o’qishni yo’lga qo’yish;

-ichki mehnat bozoriga axborotlashgan jamiyat va texnologik o’zgarishlarga moslashuvchan kasblarni rivojlantirish.

4.Inson resurslarining ijtimoiy hayotdagi o’rnini kuchaytirish:

-kadrlar tayyorlashda mehnat bozori talablarini inobotga olish va amaliyotga yaqinlashtirilgan ta’limni rivojlantirish;

-eng yaxshi mutaxassislar, sohaning amaliyotchi bilimdonlari va fidoyilarini moddiy va ma’naviy rag’batlantirish amaliyotini joriy qilish;



5. Ilm-fan va texnologiyalar, innovatsiyalar asosida ijtimoiy modernizatsiyani kuchaytirish:

-raqamli texnologiyalar, startaplar va IT-inkubatorlarni qo'llab-quvvatlovchi milliy innovatsion elektron tizimni yaratish va ularni bitta platformada jamlash;

-aqli shahar (smart city), aqli qishloq (smart village) konsepsiyasini joriy qilish orqali ijtimoiy infratuzilma va xizmatlarni raqamlashtirish;

-axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va startaplar bilan shug'ullanuvchilarga, ayniqsa yoshlarga grantlar, stipendiyalar tashkil qilish, axborot texnologiyalari sohasidagi gigantlarga stajirovkalar tashkil qilish;

-texnologik yechimlar orqali iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi ijtimoiy muammolarga innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish.

6. Axborot texnologiyalarini keng joriy qilish:

-barcha davlat tashkilotlari va xususiy sektor sohasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish;

-mamlakatimiz fuqarolarini axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish maqsadida kurslar va seminarlar tashkil qilish.

7. Axborot xavfsizligi va axloqiy mas'uliyatni ta'minlash sohasida:

-axborot etikasi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, har xil turdagi yolg'on ya'ni feyk xabarlar va kiber tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

-bog'cha, maktab, oliy ta'limda raqamli axloqni o'rganish, davlat yoki xususiy sektorda raqamli etikaga alohida e'tibor berish;

-ijtimoiy tarmoqlar, har xil blogerlar va elektron ommaviy-axborot vositalariga birdan ishonch bildirmaslik, ularni aniq manbalarini topishni o'rganish, sog'lom axborot tarqatishni rag'batlantirish.

8. Ахборотлашган жамиятда барқарор ривожланишни таъминлаш:

-O'zbekistonda ham "Smart citi", "E-Government", "E-Health" kabi loyihalarni rivojlantirish;



-axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishda ekologik barqarorlikni ham nazarda tutgan holda, raqamli infratuzilmalar va data markazlarni loyihalashtirish, qurish va innovatsion yechimlarni joriy etish lozim.

Xulosa

Axborotlashgan jamiyatni shakllantirish va uning barqaror ravishda rivojlanishi – bugungi davr talablaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, inson resurslarini samarali boshqarish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda raqamli islohotlarni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mavjud jamiyatning barcha qatlamlarida - davlat va xususiy sektor sohalari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uyushmagan aholi, yoshlar, ayollarni raqamli bilimlarga o‘rgatish, umrbod ta’lim (lifelong learning) asosida bilimi va ko‘nikmasini oshirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va rag‘batlantirish - inson kapitali salohiyati yuksaltirish va inson resurslarini rivojlantirishga xizmat qiladi va modernizatsiyani amalga oshiradi.

Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, fuqarolarni siyosiy va ijtimoiy hayotga faol jalb etish, raqamli jamoatchilikni yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatda ishonch va mas’uliyat muhitini mustahkamlash lozim.

Axborot xavfsizligi va raqamli etika masalalariga yetarlicha e’tibor qaratish, feyk va yolg‘on axborotlarning taraqqalishiga yo‘q qo‘ymaslik, ma’lumotlarning asl manbalaridan olish va tarqatish, bosma ommaviy axborot vositalari, internet nashrlarida tanqidiy va xaqqoniy bo‘lgan fikrlarni rivojlantirish orqali barqaror hamda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish zarur.

Shu tariqa, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, inson resurslarini boshqarish axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlar bo‘lib, jamiyatni modernizatsiya qilishda asosiy ustuvorlikka ega bo‘ladi va mamlakatimizning barcha sohaslarini modernizatsiya qilish hamda global raqobatga chidaydigan barqaror ijtimoiy tuzilmani shakllantirishga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
<https://president.uz/uz/lists/view/2604>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мураажотномаси. 24.01.2020 йил.
<http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Kun.uz internet axborot nashri
https://kun.uz/kr/news/2019/05/28/xomashyo-va-uni-qayta-ishlash-bilan-uzoqqa-borib-bolmaydi-shavkat-mirziyoyev-ilm-fan-va-oliy-talim-sohasini-rivojlantirish-boyicha-yigilish-otkazdi?utm_source=chatgpt.com
4. Smelser N. Sociology. New-Jersey. Prentice Hall. 1988.
5. Щёкин Н. Понятия «новация» и «инновация»: социально-философский анализ. //Беларуская думка, №5, 2017. –С. 91.
6. Мухаев Р. Политология. –Москва: Проспект, 2011, -С. 492.
7. Аузан А., Келимбетов К. Социокультурная формула экономической модернизации. //Вопросы экономики, 2012 г. № 5. –С. 38.
8. Т.Ергашев. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала №44, Часть-9, май-2024, С-64-70,
<https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13502>